XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-16-151-12-0-K/25 Xorazm viloyati

Xorazm viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-son qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 20-oktabrdagi 02-1510-sonli va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrdagi 01/57-1-29234-sonli xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli qonuni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qonunga muvofiq Xorazm viloyati mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari 3 722,3 mlrd. so‘m va xarajatlari 5 264,8 mlrd. so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 1 542,5 mlrd. so‘m miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar 192,0 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Xorazm viloyati viloyat budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

viloyatning viloyat budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

2026-yil uchun viloyatning viloyat budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlarini tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari 3-ilovaga;

Bunda mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng bir kun muddatda tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari bo‘yicha viloyatning viloyat

budjeti bilan tumanlar va shaharlar budjetlarining taqsimoti o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”ga viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

viloyatning viloyat budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining 2026-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 19 500,0 mln. so‘m etib hamda 2026-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

6. Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 29,6 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun Xorazm viloyatining viloyat budjeti, tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Bunda tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qaroriga muvofiq viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi:

respublika budjetidan Xorazm viloyatining viloyat budjetiga o‘tkazib beriladigan daromad prognozining oshirib bajarilgan qismidan 50 foizini 2025-yil 1-dekabr holatiga statistika organlaridan olingan tuman (shahar)lar aholisining jami viloyat aholisi ulushiga muvofiq tuman (shahar)lar budjetlariga belgilangan muddatlarda o‘tkazish;

dehqon bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlaridan tushgan soliqlar bo‘yicha viloyat budjetiga o‘tkazilgan mablag‘larni ushbu sohadagi hamda mahallalarda infratuzulmani yaxshilash uchun mazkur bozorlar joylashgan tuman (shahar)lar budjetlariga to‘liq o‘tkazilishini ta’minlasin.

8. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) tuman

(shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlar o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Tumanlar va shaharlar hokimliklari, hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilari 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov)ga hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (A.Xalmuratov) viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

12. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov) bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (U.Qalandarov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifalari yuklatilsin.

13. Chapqirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (E.Nurmetov) va viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish ishlarini amalga oshirsin.

Bunda qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratsin.

14. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Shermuxamedov), viloyat adliya boshqarmasi (N.Jumaniyazov) viloyatda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

15. Xalq deputatlari viloyat, shaharlar va tumanlar Kengashlari hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

16. Viloyat budjet mablag‘larini taqsimlovchilari har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda viloyat budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat o‘rnatilishi;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarning joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

17. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat boshqarmasi (A.Sabirov) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (B.Ochilov) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

19. Viloyat hokimligi axborot xizmati (A.Adambayev) viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

20. Ushbu qaror “Xorazm haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

21. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

22. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH**

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-16-151-12-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyati viloyat budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**2 140 022 355,0**
1	Foyda soligʻi	231 625 340,0
2	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	132 122 796,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi toʻgʻrisidagi deklaratsiyaga asosan toʻlaydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar toʻlaydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻidan tashqari)	1 204 073 790,0
4	Aksiz soligʻi, jami	196 146 409,0
	shu jumladan:	
	- alkogol mahsulotlari	*1 071 000,0*
	- benzinni, dizel yonilgʻisini va gazni yakuniy isteʼmolchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz soligʻi	*195 075 409,0*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	71 970 440,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	76 077 850,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	
9	Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
11	Qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari)	109 199 250,0
12	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar	59 379 840,0
13	Davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar boʻyicha olingan daromadlar	

14	O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	765 000,0
15	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan tashqari)	58 661 640,0
17	Boshqa tushumlar	

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-16-151-12-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Viloyatning viloyat budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming soʻm

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**3 682 522 055**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 423 978 218**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	258 543 837
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	**0**
1	**Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi**	**550 335 018**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**370 381 181**
	shundan:	
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	179 953 837
2	**Kasbiy taʼlim boshqarmasi**	**204 377 844**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**204 377 844**
	shundan:	
	Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
3	**Sogʻliqni saqlash boshqarmasi**	**173 277 143**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**125 677 143**
	shundan:	
	Viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	7 673 253

	Respublika oʻrta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	1 712 425
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	0
	Sogʻlikni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	1 890 190
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	47 600 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**74 610 187**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**74 610 187**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
5	**Maʼnaviyat va maʼrifat markazi**	**2 593 011**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 593 011**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**124 219 891**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**124 219 891**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 350 976**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 350 976**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi**	**18 349 305**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**18 349 305**
	shundan:	
	Issiqlik taʼminoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	0
	Koʻp kvartirali uylardagi lift uskunalarini taʼmirlash va yangilash xarajatli	9 830 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
9	**Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi**	**41 001 490**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**41 001 490**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**115 234 789**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**84 244 789**
	shundan:	
	Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	38 280 005

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	30 990 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 409 753**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 409 753**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi**	**22 856 294**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**22 856 294**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**1 925 078 683**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 925 078 683**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	6 500 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	1 700 000
	budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	12 246 060
	Gʻaznachilik xizmati qoʻmitasining hududiy boshqarmasi	7 090 219
	Kadastr agentligi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 655 680
	Davlat qarzlarini (asosiy qarz) soʻndirish boʻyicha xarajatlar	0
	Xalqaro moliyaviy institutlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar boʻyicha toʻlovlar	0
	Davlat ichki qarziga xizmat koʻrsatish boʻyicha boshqa asosiy toʻlovlar	0
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar boʻyicha asosiy toʻlovlar	0
	Issiqlik taʼminoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qoʻllash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	14 521 628
	Tibbiy sugʻurta jamgʻarmasiga oʻtkaziladigan transfertlar	1 869 140 635
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 529 254**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 529 254**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 441 242**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 441 242**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
16	**Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**7 806 375**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 806 375**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
17	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**8 360 315**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 360 315**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**12 170 729**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**12 170 729**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**89 179 662**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**89 179 662**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
20	**Hokimiyat**	**246 011 023**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**246 011 023**
	shundan:	
	Viloyat hokimlik huzuridagi tomorqa sugʻorish markazi Davlat muassasasi	372 795
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi boʻlimlari	0
	Fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish oʻquv kursi	618 287
	Zaxira jamgʻarmasi	29 599 654
	Davlat qarzlarini (asosiy qarz) soʻndirish boʻyicha xarajatlar	0
	Xalqaro moliyaviy institutlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar boʻyicha toʻlovlar	20 645 039
	Davlat ichki qarziga xizmat koʻrsatish boʻyicha boshqa asosiy toʻlovlar	120 000 000
	Oʻzoq muddatli budjet ssudasi	0
	Davlat budjetidan boshqa budjetdan tashqari davlat jamgʻarmalariga beriladigan mablagʻlar	0
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar boʻyicha asosiy toʻlovlar	43 535 346
	Avtobus yoʻnalishlarini subsidiyalash	4 200 000
	Issiqlik taʼminoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	0

	Issiqlik ta'minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
21	**Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
22	**Hokimiyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**19 880 832**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**19 880 832**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	6 802 671
	Axborot-kutubxona markazlari	4 542 517
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	8 535 644
	Viloyati matbuot va axborot boshqarmasi	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
23	**Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari**	**8 367 859**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 367 859**
	shundan:	
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi	3 933 237
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
24	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining hududiy viloyat boshkarmasi**	**8 270 998**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 270 998**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
25	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**9 981 605**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**9 981 605**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
26	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**3 459 153**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 459 153**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

27	**Oila va xotin-qizlar qoʻmitasining hududiy boshqarmasi**	**5 947 700**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 947 700**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
28	**Boshqa tashkilotlar**	**3 420 924**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 420 924**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-16-151-12-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun viloyatning viloyat budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlarini tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Aksiz solig‘i alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	DSB	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Urganch shahri	0%	8%	100%	92%	100%	100%	0%	0%	0%	6%	100%	94%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%
2	Bog‘ot tumani	0%	35%	100%	65%	100%	100%	0%	0%	0%	51%	100%	49%	0%	0%	100%	100%	0%	35%	0%	65%
3	Gurlan tumani	0%	56%	100%	44%	100%	100%	0%	0%	0%	56%	100%	44%	0%	0%	100%	100%	0%	70%	0%	30%
4	Qo‘shko‘pir tumani	0%	70%	100%	30%	100%	100%	0%	0%	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	70%	0%	30%
5	Urganch tumani	0%	19%	100%	81%	100%	100%	0%	0%	0%	9%	100%	91%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%
6	Hazorasp tumani	0%	30%	100%	70%	100%	100%	0%	0%	0%	28%	100%	72%	0%	0%	100%	100%	0%	30%	0%	70%
7	Xonqa tumani	0%	35%	100%	65%	100%	100%	0%	0%	0%	46%	100%	54%	0%	0%	100%	100%	0%	50%	0%	50%
8	Shovot tumani	0%	45%	100%	55%	100%	100%	0%	0%	0%	46%	100%	54%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	0%	0%

9	Yangiariq tumani	0%	73%	100%	27%	100%	100%	0%	0%	0%	70%	100%	30%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	0%	0%
10	Yangibozor tumani	0%	95%	100%	5%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	0%	0%
11	Xiva tumani	0%	50%	100%	50%	100%	100%	0%	0%	0%	48%	100%	52%	0%	0%	100%	100%	0%	60%	0%	40%
12	Xiva shahri	0%	30%	100%	70%	100%	100%	0%	0%	0%	25%	100%	75%	0%	0%	100%	100%	0%	50%	0%	50%
13	Tuproqqal’a tumani	0%	35%	100%	65%	100%	100%	0%	0%	0%	30%	100%	70%	0%	0%	100%	100%	0%	50%	0%	50%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Davlat mulkini ijarasidan tushum				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Urganch shahri	100%	100%	0%	0%	0%	16%	100%	84%	0%	15%	100%	85%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
2	Bog‘ot tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
3	Gurlan tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
4	Qo‘shk‘pir tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
5	Urganch tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
6	Hazorasp tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
7	Xonqa tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
8	Shovot tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
9	Yangiariq tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
10	Yangibozor tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
11	Xiva tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
12	Xiva shahri	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
13	Tuproqqal’a tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	DSB	DSB	DSB	DSB	DSB	DSB	DSB	DSB
1	Urganch shahri	0%	0%	100%	100%	100%	0%	5%	95%	5%	95%	5%	95%
2	Bog‘ot tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	22%	78%	22%	78%	22%	78%
3	Gurlan tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	50%	50%	50%	50%	50%	50%
4	Qo‘shko‘pir tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	22%	78%	20%	80%	20%	80%
5	Urganch tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	20%	80%	21%	79%	20%	80%
6	Hazorasp tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	45%	55%	45%	55%	45%	55%
7	Xonqa tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	55%	45%	50%	50%	50%	50%
8	Shovot tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	27%	73%	27%	73%	27%	73%
9	Yangiariq tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	50%	50%	50%	50%	50%	50%
10	Yangibozor tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	71%	29%	71%	29%	71%	29%
11	Xiva tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	30%	70%	30%	70%	30%	70%
12	Xiva shahri	0%	0%	100%	100%	100%	0%	20%	80%	20%	80%	20%	80%

13	Tuproqqal’a tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	30%	70%	30%	70%	30%	70%

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-16-151-12-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Viloyatning viloyat budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori

ming soʻmda

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori	*shundan, aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratilgan mablag'lar**
JAMI		**1 542 499 700,0**	**191 982 000,0**
	shundan		
1	Viloyat budjeti	1 542 499 700,0	191 982 000,0
2	Urganch shahri	0,0	0,0
3	Bogʻot tumani	0,0	0,0
4	Gurlan tumani	0,0	0,0
5	Qoʻshkoʻpir tumani	0,0	0,0
6	Urganch tumani	0,0	0,0
7	Hazorasp tumani	0,0	0,0
8	Xonqa tumani	0,0	0,0
9	Shovot tumani	0,0	0,0
10	Yangiariq tumani	0,0	0,0
11	Yangibozor tumani	0,0	0,0
12	Xiva tumani	0,0	0,0
13	Xiva shahri	0,0	0,0
14	Tuproqqalʼa tumani	0,0	0,0

*tamaki uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlarihxisobidan ajratiladigan mablag‘lar

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-16-151-12-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming soʻmda

Hudud nomi	Daromad*	Xarajat
JAMI	**3,722,341,200.0**	**5,264,840,900.0**
Viloyat budjeti	2,140,022,355.0	3,682,522,055.0
Urganch shahri	164,584,122.0	164,584,122.0
Bogʻot tumani	119,531,608.0	119,531,608.0
Gurlan tumani	134,949,089.0	134,949,089.0
Qoʻshkoʻpir tumani	138,327,967.0	138,327,967.0
Urganch tumani	135,948,197.0	135,948,197.0
Hazorasp tumani	120,183,958.0	120,183,958.0
Xonqa tumani	137,813,288.0	137,813,288.0
Shovot tumani	150,687,138.0	150,687,138.0
Yangiariq tumani	107,145,991.0	107,145,991.0
Yangibozor tumani	106,260,954.0	106,260,954.0
Xiva tumani	106,850,642.0	106,850,642.0
Xiva shahri	89,059,727.0	89,059,727.0

Tuproqqal'a tumani	70,976,164.0	70,976,164.0

**tamaki, alkogol mahsulotallari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha transfertlarni hisobga olmagan holda*

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-16-151-12-0-K/25 -son
qaroriga
6-ilova

2026-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy gʻazna hisobvaraqlarida turgan budjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori

ming soʻmda

T/r	Shahar (tuman)lar	Miqdor
JAMI		**19 500 000,0**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	8 791 000,0
2	Urganch shahri	945 000,0
3	Bogʻot tumani	870 000,0
4	Gurlan tumani	882 000,0
5	Qoʻshkoʻpir tumani	914 000,0
6	Urganch tumani	985 000,0
7	Hazorasp tumani	941 000,0
8	Xonqa tumani	833 000,0
9	Shovot tumani	921 000,0
10	Yangiariq tumani	766 000,0
11	Yangibozor tumani	588 000,0
12	Xiva tumani	977 000,0

13	Xiva shahri	606 000,0
14	Tuproqqal'a tumani	481 000,0